

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

MADANIYATDA TILNING O'RNI, TIL VA MADANIYATING O'ZARO BOG'LIQLIKLIGI

Xudoyberdiyeva Zuhra

Xaqerdiyeva Madina

Anatasiya: Til haqida tushuncha ,til va jamiyat uzviy aloqadorligi, madaniyatda tilning o'rni ,til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik madaniyat haqida tushuncha ,madaniyat haqida olimlarning fikri.

Kalitso'z: Til ijtimoiy hodisa , bilingvizm, integratsiya, madaniyat tushunchasi.

Til bilan jamiyat uzviy aloqadordir, zotan til jamiyatda yashaydi va jamiyat ham, o'z navbatida tilning ishtrokisiz rivojlana olmaydi. Agar til jamiyat bilan hamohang taraqqiy etmas ekan ,u o'lik tilga aylanadi faqat ilmiy jihatdan o'rganishgagina yaroqli bo'lib qoladi.

Til tabiiy hodisa bo'lmagani uchun uning o'rni ijtimoiy hodisalar doirasida belgilanadi. Biroq bu o'rinda uning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqasi qandayligini tushunib yetmog'imiz kerak .Ayni paytda quyidagi savol ko'ndalang turadi, tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan umumiyliigi va farqlari nimalardan iborat.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan umumiyliigini jamiyatning tilsiz taraqqiy eta olmasligida ko'ramiz, zotan, u jamiyat uchun ma'naviyat va madaniyat kaliti sanaladi. Til o'zining tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlari hamda vazifasiga ko'ra boshqa ijtimoiy hodisalardan tubdan farqlanadi .bunga uni jamiyatning huquqiy , diniy, siyosiy, qarashlari bilan qiyoslaganimizda to'liq ishonch hosil qilamiz. Tilning jamiyatdagi vaziafasini uning kishilar o'rtasida aloqa quroli ekanligida ko'ramiz .Biroq buni til ishlab chiqarish quroli ham bo'la oladi deb tushunmaslik kerak. Ba'zi tilshunoslar esa uni ishlab chiqarish quroli bilan tenglashtirishga harakat qiladi. Albatta, bunday g'aliz g'oya bilan qo'shilish qiyin .Ishlab chiqarish quroli mahsulot yetishtradi va u o'zining ma'lum bir shakily ko'rinishiga ega bo'ladi. Til esa hech narsa ishlab chiqmaydi, u jism tarzidagi shakliy ko'rinishiga ega emas, uning strukturasi va sisteamasi mavjud xalos .Ana shu Sistema belgilari orqali kishilar o'zaro fikr almashadilar. Bu esa til bilan tafakkur haqida mulohaza yuritishga undaydi.

Til bilan madaniyatning o'zaro munosabati xususida gapirganda "madaniyat" tushunchasi xususida batafsil to'xtalish zarur. Ushbu tushunchani talqin qilish yuzasidan ko'plab urinishlar mavjud. Masalan G.V. Yelvizarova "madaniyat"

tushunchasini intuitive jihatdan shaffof bo'lib tuyuladigan aksiomatik tushunchalar qatoriga kiradi. Biroq bunday kompleks tushunchaga ta'rif keltrish nihoyatda murakkab holdir. Madaniyatning "Madaniyat-bu bizning bu yerda qanday yashashimizdir" kabi qaysidir bir jihatga to'xtalmasdan ushbu tushunchaning barcha qirralarini qamrab olishga intiladigan ta'riflar ham mavjud. Takidlash lozimki, til belgilarning jamiyat a'zolari tomonidan real qo'llanishi ma'lum bir me'yorni talab qiladi. Bu narsa belgining ifodalovchi tomoniga ham ta'sir etadi va unda o'z aksini topadi. Aks holda, til me'yoriga ehtiyoj qolmagan bo'lardi. Aytish lozimki, me'yordan adabiy tilde so'zlovchilar ham turlicha foydalanadi, zotan u so'zlovchining madaniy savyasi bilan ham bog'liqdir. Bunday hodisa **bilingvizm** deb ataladi. Mazkur hodisani Kanada, SHveytsariya, Lotin Amerikasi, Belgiyada kuzatish mumkin.

Har bir millat o'z adabiy tilning mustaxkamlanishi uchun harakat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida dialektlar kamayib, adabiy tilga yaqinlasha borishi kuzatiladi. Buni adabiy til ta'sirining kengayishi bilan izohlash mumkin. Til taraqqiyotidagi bu jarayon **integratsiya** deb yuritiladi. Integratsiya bir tilga mansub shevalarning adabiy til me'yorlariga yaqinlashuvidir. Bunday jarayonlar tasodifan yuz bermaydi, balki jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy hayotning taraqqiyot jarayonlariga bog'liq tarzda sodir bo'ladi. Til va madaniyat uzviy bog'liqdir. "Til millat ko'zgusi" deb bejizga aytilmaydi tilingiz so'zlashuv uslubingiz chiroyli bo'lsa sizning madaniyatingiz ham chiroyli bo'ladi.

Til meyorlariga amal qilib so'zlashuv uslublardan foydalanib badiiy tilda gapirgan inson doimo madaniyatli ko'rinadi. Madaniyat tushunchasi A. Vejbitskaya shunday tariflagan "Madaniyat –bu ramzlarda mujassamlashgan mohiyatlarning tarixiy jihatdan shakllanadigan modelidir" degan. Bu meros qoldiriladigan tasavvurlar tizimi bo'lib, ular yordamida odamlar o'zaro bir-biri bilan muloqotda bo'lishadi va ularning hayot haqidagi bilimlari hamda hayotiy shu tasavvurlar asosida qayd qilinadi va rivoj topadi. E. Sepir madaniyatni mazkur jamiyatning ish yuritishi va fikirlashi uchun asos bo'ladigan narsa sifatida tariflagan. Madaniyat ta'rifiga nisbatan ijtimoiy yondoshuv ushbu holatning tabiat, alohida shaxs bilan cheklanib qolmaydigan, balki muloqot qilib turadigan odamlar guruxiga xos bo'lgan biologik va fiziologik jihatlardan tamomila o'zgacha holat tarzida ko'rib chiqishga asoslanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tilshunoslikga kirish. Qo'llanma. Xolmonova Z.T.T 2000
2. Dadaboyev H.A Tilshunoslik nazariyasi va matadologiyasi T 2004

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

3. Berdiyeva X. Xo'jayev P. Yo'ldoshev B umumiy tilshunoslik Samarqand 1974

4. Dunyoning lingvomadaniy manzarasi va uning tilda aks etilishi. Sokinaxon Xamraxonova.